

KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH



Xaydarova Kamola Axinjanovna
Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti
ORCID: 0009-0007-3404-9960

Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti,
23-63 MT-guruh talabasi
Email: suhrobberdiqulovich@gmail.com
Tel: +998938746104

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonaning iqtisodiy barqarorligini oshirishda korxonaning resurslarini rejalashtirish — ERP tizimlarining o'ri va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda ERP tizimlarini joriy etish orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish hamda boshqaruv qarorlari sifatini yaxshilash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida ERP tizimlarining korxonaning moliyaviy natijalariga ta'sirini baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ERP tizimlari, iqtisodiy barqarorlik, samaradorlikni baholash, raqamli transformatsiya, biznes jarayonlarini optimallashtirish, resurslarni boshqarish, korporativ axborot tizimlari.

Abstract. This article examines the role and significance of Enterprise Resource Planning (ERP) systems in enhancing the economic stability of an enterprise. The study analyzes the optimization of business processes, the reduction of operating costs, and the improvement of management decision-making quality through the implementation of ERP systems. Furthermore, methodological approaches are proposed to assess the impact of ERP systems on an enterprise's financial performance in the context of digital transformation.

Keywords: ERP systems, economic stability, performance evaluation, digital transformation, business process optimization, resource management, corporate information systems.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение систем планирования ресурсов предприятия (ERP) в повышении экономической устойчивости предприятия. В исследовании анализируются вопросы оптимизации бизнес-процессов, сокращения операционных расходов и повышения качества управленческих решений посредством внедрения ERP-систем. Также предложены методические подходы к оценке влияния ERP-систем на финансовые результаты предприятия в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: ERP-системы, экономическая устойчивость, оценка эффективности, цифровая трансформация, оптимизация бизнес-процессов, управление ресурсами, корпоративные информационные системы.



KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar muvaffaqiyati nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki resurslarni boshqarishdagi aniqlik va tezkorlik bilan ham belgilanadi. Bugungi kunda ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari oddiy dasturiy ta'minot vositasi emas, balki korxonaning iqtisodiy rentabelligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik aktiv sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon tajribasi, jumladan, Toyota va Amazon kabi yirik kompaniyalar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ERP tizimlarini joriy etish operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda ta'minot zanjiri samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. O'zbekistondagi yirik xo'jalik subyektlari, xususan, "Uzbekistan Airways" AJ va "Uzbekneftgaz" AJ kabi kompaniyalar ham mazkur tizimlardan foydalanish orqali moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, aktivlar aylanuvchanligini tezlashtirish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga erishmoqda. Bu esa korxonalarining xalqaro bozordagi investitsion jozibadorligini mustahkamlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

ERP tizimlarining iqtisodiy mohiyati tarqoq biznes jarayonlarini yagona axborot tizimiga birlashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda boshqaruv jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirishdan iborat. Mazkur maqolada ERP tizimlarining korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi roli hamda ularning samaradorligini baholash metodlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Valyychko va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko'ra, ERP tizimlari logistik va ishlab chiqarish jarayonlariga ekologik mezonlarni integratsiya qilish orqali mahsulot va xizmatlar qiymat zanjirining har bir bosqichida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [1].

Xorijiy olimlardan Thomas H. Davenport o'z tadqiqotlarida ERP tizimlarini korxonalar biznes jarayonlarini integratsiyalovchi muhim vosita sifatida baholab, ularning samaradorligini asosan jarayonlarning optimallashtirilishi va xarajatlarning qisqartirilishi orqali o'lchash mumkinligini ta'kidlaydi [2]. Shuningdek, Markus M. L. Markus va Cornelius Tanis ERP tizimlarini joriy etish bosqichlari hamda ularning natijadorligini baholash mezonlarini ishlab chiqqan bo'lib, ular tizim muvaffaqiyatini foydalanuvchilar qoniqishi, tizimdan foydalanish darajasi va biznes natijalari bilan bog'laydi [3].


Bundan tashqari, Peter F. Drucker boshqaruv samaradorligi konsepsiyasida axborot texnologiyalarining rolini alohida ta'kidlab, ERP tizimlari orqali korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish va strategik ustunlikka erishish mumkinligini qayd etadi [4].

Mahalliy olimlar orasida ERP tizimlarini joriy etish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari R. A. Alimov, A. V. Vahobov hamda Sh. Sh. Shodmonov tomonidan o'rganilgan. Ular o'z tadqiqotlarida ERP tizimlarining milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llanilish xususiyatlarini, xususan, sanoat korxonalarida resurslarni boshqarish samaradorligini oshirishdagi o'rnini tahlil qilganlar. Mahalliy tadqiqotlarda, asosan, ERP tizimlarini joriy etish jarayonidagi muammolar, infratuzilma cheklovlari va kadrlar salohiyati bilan bog'liq jihatlar keng yoritilgan.

Tadqiqotchi Kumushbibi G'ulomova "Korxonalarda ERP tizimini rivojlantirish" nomli maqolasida korxonalarda ERP tizimlarini joriy etish va rivojlantirish jarayonlarining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritadi. Shuningdek, unda ERP tizimining asosiy modullari, uning afzalliklari, modernizatsiya talablari hamda raqamli transformatsiya jarayonidagi roli, jumladan, O'zbekiston korxonalarida joriy etish tajribalari tahlil qilingan.

Korxonalarda ERP tizimlarini takomillashtirish zamonaviy boshqaruv amaliyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Zero, ERP tizimlari nafaqat ichki biznes jarayonlarini avtomatlashtirishni ta'minlaydi, balki ularni strategik boshqaruv darajasida yagona integratsiyalashgan mexanizmga aylantiradi. ERP tizimini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad — resurslar harakatini kompleks nazorat qilish, ma'lumotlarning ishonchliligi va shaffofligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini optimallashtirish hamda korxonalar faoliyati samaradorligini yuksaltirishdan iborat.

ERP tizimini joriy etish va rivojlantirishning dastlabki bosqichida korxonaning mavjud biznes jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda ularning zaif tomonlari, ortiqcha funksional yuklamalari, qo'lda bajariladigan operatsiyalar hamda takrorlanuvchi amaliyotlar aniqlanadi. Mazkur tahlillar asosida ERP tizimi uchun zarur bo'lgan funksional modullar, ma'lumotlar oqimining optimal yo'nalishlari hamda boshqaruv tuzilmasi ilmiy asoslangan holda shakllantiriladi (1-rasm).



1-rasm. Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ERP tizimlarining samaradorligini baholash¹

ERP tizimining samaradorligi ko'p jihatdan uning modullararo integratsiya darajasiga bog'liq. Jumladan, ishlab chiqarish moduli ta'minot zanjiri bilan, omborxonada moduli moliyaviy tizim bilan, inson resurslarini boshqarish moduli esa boshqa operatsion modullar bilan uzviy aloqada ishlaydi. Bunday integratsiya korxonada bo'linmalari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini real vaqt rejimida ta'minlab, boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish imkonini yaratadi. Natijada ERP tizimi korxonada faoliyatining barcha yo'nalishlarini yagona raqamli platforma doirasida birlashtiruvchi markaziy mexanizmga aylanadi.

Shu bilan birga, ERP tizimini rivojlantirish faqat texnologik integratsiya bilan cheklanmaydi. U biznes jarayonlarni qayta loyihalash (business process reengineering), xodimlar malakasini oshirish va ularni tizimga moslashtirish, shuningdek, korporativ madaniyatni transformatsiya qilish kabi tashkiliy omillar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Mazkur omillar tizimning samarali ishlashini ta'minlovchi muhim shartlar sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi davrda ERP tizimlarining evolyutsiyasi jarayonida bulutli hisoblash texnologiyalari, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash (Big Data) hamda IoT (Internet of Things) kabi innovatsion yechimlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bulutli ERP platformalari an'anaviy lokal server infratuzilmasiga nisbatan yuqori darajada moslashuvchanlik, iqtisodiy tejamkorlik va kengaytirilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Mazkur jihatlardan, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun muhim bo'lib, ularga katta boshlang'ich IT xarajatsiz zamonaviy ERP tizimlaridan foydalanish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalari prognozlash, talabni rejalashtirish, risklarni tahlil qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish kabi funksiyalarni avtomatlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, ERP tizimi sun'iy intellekt asosida bozor talabidagi o'zgarishlarni oldindan aniqlab, resurslar taqsimotini dinamik tarzda moslashtirish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida ERP tizimlarini rivojlantirish jarayoni mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, raqamli transformatsiya siyosati hamda korxonalarni modernizatsiya qilish dasturlari bilan bevosita bog'liqdir. Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati, xususan,

¹ Muallif ishlanmasi



korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishga qaratilgan tashabbuslar ERP tizimlariga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirmoqda. Natijada sanoat korxonalari, moliya institutlari, savdo tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohasi subyektlari ERP tizimlarini joriy etish orqali o'z biznes jarayonlarini optimallashtirishga intilmoqda.

Biroq amaliyotda ayrim tizimli cheklovlar ham kuzatiladi. Ular qatoriga xodimlarning raqamli kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurati, biznes jarayonlarni tartibga soluvchi aniq reglamentlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, dasturiy yechimlarning moslashuvchanligini oshirish ehtiyoji hamda IT infratuzilmani yanada takomillashtirish masalalari kiradi.

ERP tizimlarining samarali rivojlanishini ta'minlash uchun korxonalarda kompleks strategik yondashuvni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda, avvalo, korxonada ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, mos ERP modullarini tanlash hamda tizimni bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Shu bilan birga, tizimning axborot xavfsizligi talablariga mosligi, ma'lumotlarni zaxiralash mexanizmlarining mavjudligi va kelgusida kengaytirish imkoniyatlariga ega bo'lishi muhim omil sifatida qaraladi. Xodimlarni muntazam o'qitish va ularning malakasini oshirish jarayonlari esa ERP tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy shartlardan biridir.

Umuman olganda, ERP tizimlarini joriy etish va rivojlantirish korxonalariga iqtisodiy samaradorlikni oshirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, real vaqt rejimida ma'lumotlar asosida tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. ERP tizimi joriy etilgan tashkilotlarda biznes jarayonlarning funksional uyg'unligi ta'minlanadi, natijada boshqaruv mexanizmlarining barqarorligi va samaradorligi ortadi. Shu sababli ERP tizimlarini modernizatsiya qilish va ularni innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalash har bir korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ERP tizimining korxonada iqtisodiy barqarorligiga ta'sirini baholash uchun miqdoriy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Metodologiyaning asosi tizimni joriy etishdan oldingi va keyingi davrlar (Pre-ERP va Post-ERP) o'rtasidagi moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasini o'zaro qiyoslashga qaratilgan.

Tahlil jarayonida "zaxiralar aylanuvchanligi" (Inventory Turnover) koeffitsiyenti orqali aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi, "operatsion foyda marjasi" (Operating Margin) orqali biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning rentabellikka ta'siri hamda "ma'lumotlar aniqligi" (Data Integrity) ko'rsatkichlari orqali moliyaviy qarorlar qabul qilishda axborotning ishonchlilik darajasi baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda iqtisodiy natijalarni tizimlashtirish maqsadida statistik ma'lumotlarni guruhlash usullari qo'llanildi hamda ERP tizimining investitsion jozibadorligini aniqlash uchun ROI (investitsiya qaytimi) tahlilidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ERP tizimlarini korxonada boshqaruv tizimiga integratsiya qilish xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. ERP tizimi joriy etilgan tashkilotlarda moliyaviy jarayonlar shaffofligi o'rtacha 30–40 foizga yaxshilangan, omborxonada hisobi va ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan xatoliklar esa qariyb ikki baravarga kamaygan. Shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish natijasida o'rtacha 15–20 foiz miqdorida iqtisodiy tejamkorlikka erishilgan.

Korxonada tarkibiy bo'linmalari o'rtasida ma'lumot almashinuvining real vaqt rejimida yo'lga qo'yilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini oshirishga xizmat qilgan. Natijada xodimlar mehnat unumdorligi oshib, biznes jarayonlarning avtomatlashtirilishi ishlab chiqarish jarayonlari barqarorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

ERP tizimlarining iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida SAP va Oracle platformalaridan foydalanuvchi xalqaro korporatsiyalar hamda O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlarini boshlab yuborgan yirik korxonalar faoliyati o'rganildi.

Quyidagi jadvalda ERP tizimini joriy etishdan oldingi (Pre-ERP) va joriy etilgandan keyingi (Post-ERP) bir necha yillik davr oralig'idagi o'zgarishlar asosiy iqtisodiy koeffitsiyentlar kesimida aks ettirilgan (1-jadval).



1-jadval
ERP tizimini joriy etish natijasida korxonalar faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (Pre-ERP va Post-ERP taqqoslamasi)²

Korxonona nomi	Sanoat tarmog'i	Zaxiralar aylanuvchanligi (marta)	Operatsion foyda marjasi (%)	Ma'lumotlar aniqligi (%)
Siemens AG	Texnologiya	4.8 → 6.2	11.5% → 15.2%	78% → 99.2%
Toyota	Mashinasozlik	8.5 → 11.2	9.0% → 12.4%	85% → 99.8%
"Uzbekistan Airways" AJ	Aviatsiya	3.2 → 4.5	7.4% → 12.1%	72% → 97.0%
"UzTransgaz" AJ	Energetika	2.8 → 3.9	6.5% → 10.8%	68% → 96.5%

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ERP tizimlarining joriy etilishi nafaqat texnologik yangilanish, balki korxonaning moliyaviy hisobotlarida bevosita aks etuvchi yuqori rentabelli investitsiya hisoblanadi. Global miqyosda Siemens AG va Toyota Motor Corporation kabi sanoat gigantlari tajribasi shuni tasdiqlaydiki, tizim integratsiyasi natijasida sotilgan mahsulot tannarxi (COGS) sezilarli darajada pasayadi. Xususan, Siemens AG korxonasida ma'muriy va operatsion xarajatlarning tushumga nisbatan 3,7% ga kamayishi kompaniya balansida qariyb 2,8 mlrd yevro miqdoridagi qo'shimcha operatsion foyda (EBIT) shakllanishiga zamin yaratgan. Toyota Motor korporatsiyasida esa zaxiralarni boshqarishning optimallasuvi hisobiga ombor xarajatlari 18–20% ga qisqarib, bu bevosita aylanma mablag'lar (Working Capital) samaradorligini oshirgan.

O'zbekistonning yirik sanoat subyektlari faoliyatida ham shunga o'xshash ijobiy iqtisodiy dinamika kuzatilmoqda. Uzbekistan Airways AJ tomonidan ERP modullarining joriy etilishi aviayoqilg'i va texnik xizmat ko'rsatish kabi asosiy operatsion xarajatlarni 15% ga qisqartirish imkonini berdi, bu esa o'z navbatida aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichining yaxshilanishiga olib keldi. Energetika tarmog'ining yirik vakili bo'lgan UzTransgaz AJ misolida esa tizimning iqtisodiy samarasi moliya va billing modullarining integratsiyasi orqali yaqqol namoyon bo'ldi: muddati o'tgan debitorlik qarzdorligi 12–14% ga qisqardi, bu esa korxonaning absolyut likvidlik koeffitsiyentiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash muddati (lead time) 30 kundan 5–7 kungacha qisqarib, ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi 96,5% dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

ERP tizimlarining korxonaga iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi roli strategik ahamiyatga ega. Global sanoat gigantlari hamda O'zbekistonning yirik korporatsiyalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurslarni rejalashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari korxonaning moliyaviy rentabelligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tizimning joriy etilishi operatsion xarajatlarni optimallashtirish orqali sof foyda marjasini kengaytiradi, zaxiralar aylanuvchanligini tezlashtirish hisobiga esa "muzlatilgan" aktivlarni samarali muomalaga jalb etib, korxonaning likvidlik darajasini yaxshilaydi. Eng muhimi, axborot ishonchliligining ortishi moliyaviy risklarni kamaytiradi hamda korxonaning xalqaro audit standartlariga mos ravishda shaffof faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Mazkur ijobiy natijalarni yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston korxonalari uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, ERP tizimini joriy etishda investitsiya qaytimini tezlashtirish uchun dastlab eng yuqori xarajat ulushiga ega bo'lgan ishlab chiqarish va logistika bo'linmalariga ustuvor e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, tizimdan olinadigan ma'lumotlar asosida samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun xodimlar malakasini muntazam oshirib borish zarur. Uchinchidan, davlat tomonidan raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash doirasida sanoat subyektlari uchun imtiyozli kreditlar va soliq preferensiyalarini kengaytirish korxonalar kapitalizatsiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ERP tizimlari korxonani tarqoq boshqaruvdan yaxlit iqtisodiy ekotizimga o'tkazish orqali uning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi hamda barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

² Muallif ishlanmasi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Величко О. П., Лук'яненко В. В., Ставрат С. С., Вінніков Ю. В. Логістичні драйвери розвитку виробничої, інноваційної та маркетингової діяльності конкурентоспроможних підприємств в системі менеджменту // Актуальні проблеми економіки. – 2025. – № 1(283). – С. 98–108. – Режим доступу: <https://dspace.dsau.dp.ua/handle/123456789/12102>
2. Davenport T. H., Spanyi A. Digital Transformation Should Start with Customers // MIT Sloan Management Review. – 2019. – Available at: <https://www.babson.edu/academics/faculty/faculty-profiles/thomas-davenport.php>
3. Markus M. L., Axline S., Petrie D., Tanis C. Learning from adopters' experiences with ERP: problems encountered and success achieved // Journal of Information Technology. – 2000. – Vol. 15. – P. 245–265.
4. The Editors of Encyclopaedia Britannica. Peter F. Drucker // Encyclopaedia Britannica. – 2026. – Available at: <https://www.britannica.com/money/Peter-F-Drucker> (accessed: 11 April 2026).
5. Хайдарова К. А. Химическая промышленность Республики Узбекистан и факторы, влияющие на развитие данной отрасли // Интернаука. – 2017. – № 6-2. – С. 5–6.
6. Bernroider E., Koch S. Decision Making for ERP Investments from the Perspective of Organizational Impact: Preliminary Results from an Empirical Study // Americas Conference on Information Systems. – Milwaukee, WI, 1999.
7. Kasimova F. Trends and Prospects for the Development of Digital Marketing Activities in Small Business // International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Vol. 14. – No. 5.
8. Kakhramonovna K. et al. Marketing Research Management in the Digital Economy // Confrencea. – 2025. – Vol. 6. – No. 6.
9. Касимова Ф. Т., Джалилов Ш. К. Особенности цифрового маркетинга в малом бизнесе и предпринимательстве // Marketing Jurnal. – 2025. – № 11.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>